

## ZAMONAVIY ERTAKLARNING LINGVOAKSIOLOGIK TAHLILI

**Sharopova Zubayda Fazilovna**

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti dotsenti

sharopova\_z@gmail.com

**Annotatsiya.** Aksiologiya (yun. axios qadrligi, logos ta'limot) qadriyatlar haqidagi falsafiy ta'limot bo'lib, u ilk bor XX asr boshlarida P. Lapi tomonidan mustaqil fan sifatida ilmiy muomalaga kiritilgan. Uning shakllanishida Platon, Aristotel, Kant, Gegel, Niцше, Шелер, Риккерт каби мутафаккирларнинг g'oyalari muhim ahamiyat kasb etgan. Badiiy matnlar, ayniqsa bolalar adabiyoti namunalari, qadriyatlarning sodda, ammo ta'sirchan shaklda ifodalanishi bilan ajralib turadi. Ertaklarda qo'rquv, yaxshilik, yomonlik, xavfsizlik kabi universal qadriyatlar lingvistik vositalar orqali yetkaziladi. Mazkur maqolada bolalar uchun ёзилган замонавий ertaklar lingvoaksiologik jihatdan tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar.** lingvoaksiologiya, qadriyat, aksiologema, замонавий ertak.

**Abstract.** Axiology (Greek axios valuable, logos teaching) is a philosophical doctrine about values, which was first introduced into scientific circulation as an independent discipline by P. Lapi at the beginning of the 20th century. The ideas of such thinkers as Plato, Aristotle, Kant, Hegel, Nietzsche, Scheler, Rickert played an important role in its formation. Literary texts, especially examples of children's literature, are distinguished by the simple but effective expression of values. In fairy tales, universal values such as fear, goodness, evil, security are conveyed through linguistic means. This article analyzes modern fairy tales written for children from a linguo-axiological perspective.

**Keywords.** linguo-axiology, value, axiologeme, modern fairy tale.

Hozirgi zamon gumanitar fanlari taraqqiyotida til markaziy o'rinni egallaydi. XX asrda yuz bergan "lingvistik burilish" natijasida til nafaqat muloqot vositasi, balki inson ongi, madaniyati va qadriyatlarini shakllantiruvchi asosiy mexanizm sifatida qarala boshlandi. Shu jihatdan tilshunoslik va falsafa o'rtasidagi integratsiya yangi ilmiy yo'nalish — lingvoaksiologiyaning shakllanishiga olib keldi.

"Jahon tilshunosligida sohalararo integrativ yondashuv va olamning lisoniy manzarasini inson omili, bahosi va qadriyat nuqtai nazaridan tadqiq etish amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Antropotsentrik paradigmalar, inson tafakkuri va baholash kategoriyasining tilda ifodalanish tamoyillari, milliy mentalitetning aks etish darajasi

aksiolingvistika yo'nalishidagi tadqiqotlarning asosiy predmetiga aylandi. Baholash mezonlari, qadriyat asoslari tilning to'plash vazifasida namoyon bo'ladi. Qadriyat va aksqadriyat, sub'ektiv baho – munosabat, xalq turmush tajribasi, tilning aksiologik mazmuni ifodalashdagi kommunikativ, emotsional-ekspressiv, akkumulyativ imkoniyatlari, tarixiy taraqqiyoti, barqaror birikmalar, xususan, maqollarda o'z ifodasini topadi.”<sup>1</sup>

Aksiologiya (yun. *axios* qadrli, *logos* ta'limot) qadriyatlar haqidagi falsafiy ta'limot bo'lib, u ilk bor XX asr boshlarida P. Lapi tomonidan mustaqil tadqiqot sohasi sifatida ilmiy muomalaga kiritilgan. Uning shakllanishida Platon, Aristotel, Kant, Gegel, Nisshe, Sheler, Rikkert kabi mutafakkirlarning g'oyalari muhim ahamiyat kasb etgan.

Lingvoaksiologiya til va qadriyatlar o'rtasidagi munosabatni o'rganuvchi fan bo'lib, u insonning dunyoga bo'lgan baholovchi munosabati til orqali qanday ifodalanishini tadqiq qiladi. Ma'lumki, qadriyatlar inson ongida shakllanadi, lekin ular til orqali namoyon bo'ladi va avloddan-avlodga uzatiladi. Shu nuqtai nazardan til: madaniy xotira, qadriyatlar jamlanmasi va ma'no uzatuvchi vosita sifatida qaraladi.

Zamonaviy aksiologiya an'anaviy statik yondashuvdan farqli ravishda, qadriyatlarning dinamik tabiatini o'rganadi. Ya'ni u: qadriyatlarning paydo bo'lishi; rivojlanishi; yo'qolishi va qayta tiklanishi kabi jarayonlarni inson ongi va jamiyat kontekstida tahlil qiladi. Zamonaviy tilshunoslikda lingvoaksiologiya til va qadriyatlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganuvchi muhim yo'nalish hisoblanadi. Ushbu yo'nalish til birliklari orqali insonning borliqni baholashi, qadriyatlar tizimini shakllantirishi va ularni kommunikativ jarayonda ifodalash mexanizmlarini tadqiq etadi.

Lingvoaksiologik yondashuv falsafiy aksiologiya, madaniy tadqiqotlar va diskurs nazariyasi bilan chambarchas bog'liq. Mazkur nazariyalarga ko'ra, qadriyatlar inson ongida ierarxik tizim sifatida mavjud bo'lib, ular til orqali namoyon bo'ladi. Badiiy matnlar, ayniqsa bolalar adabiyoti namunalari, qadriyatlarning sodda, ammo ta'sirchan shaklda ifodalanishi bilan ajralib turadi. Ertaklarda qo'rquv, yaxshilik, yomonlik, xavfsizlik kabi universal qadriyatlar lingvistik vositalar orqali yetkaziladi.

Zero, til mohiyatan o'z-o'zini rivojlantiruvchi sistema, madaniy dunyoqarashni aks ettiruvchi mexanizm, qadriyatlarni saqlovchi vosita sifatida faoliyat yuritadi.

Aksiologiyaga aloqador tadqiqotlarda qadriyatlar quyidagi turlarga bo'lib o'rganilganligi kuzatiladi: umuminsoniy qadriyatlar, milliy-etnik qadriyatlar, ijtimoiy qadriyatlar, shaxsiy qadriyatlar. Bu qadriyatlar tilda turli shakllarda namoyon bo'ladi. Masalan, *inson* so'zini oladigan bo'lsak, asosiy qadriyat sifatida quyidagicha talqin qilinadi: Rus va xitoy madaniyatlarida inson - ma'naviy markaz; yaxshilik, mehr, insoniylik tashuvchisi hamda tabiat va jamiyat bilan bog'lovchi bo'g'in sifatida talqin

<sup>1</sup> Komilova G.R. O'zbek tilidagi maqollarning aksiolingvistik tahlili. Filol. fan. b. f. d.diss. avtoref. -Toshkent, 2022. - B.5.

qilinadi. Bu holat tilda ham aks etadi. Ya'ni rus tilida: "chelovechnost" xitoy tilida "人" (jen). Har ikkalasida ham inson — boshqa qadriyatlarni birlashtiruvchi markaz sifatida tushuniladi.

Aksiologik yondashuvda ilmiy jihatdan quyidagi zanjir asosiy hisoblanadi: *til* → *ong* → *jamiyat* → *madaniyat* → *inson*. Bu zanjir orqali qadriyatlar shakllanadi, saqlanadi va uzatiladi.

Quyidagi bolalarga atalgan kichik hajmli ertakni lingvoaksiologik aspektda tahlil qilib ko'ramiz:

### **Shamol**

*Madina bog'chaga borish uchun uydan yugurib chiqdi. Lekin hovlida shamol kutib turgandi. Shamol qizchani mahkam ushlab oldi-yu, osmonga — qop-qora bulutlar orasiga olib chiqib ketdi. Qizcha sirayam qo'rqmaganini ko'rgan shamol jahl bilan g'uvulladi:*

— *Hoy qizaloq, nega qo'rqmayapsan?*

— *Nega qo'rqishim kerak? — dedi Madina. — Axir mehribonligingni bilaman-ku! Har safar uyimizga kelganingda hovlimizdagi gullarni silab o'tishingni, issiq yozda salqinlik olib kelib, odamlarning joniga oro kirishingni ko'rganman. Ayt-chi, nega jahling chiqyapti o'zi?*

— *Zerikib ketdim, — xo'rsindi Shamol.*

— *Bo'pti, men bog'chadan qaytgunimcha kutib turgin, keyin birga quvlamachiq o'ynaymiz. Seni gullarim va itim Olapar bilan tanishtiraman.*

*Shamol qizchani uchirib olib borib, bog'chani darvozasi oldiga tushirdi. Madina Shamolga qo'l silkib qo'ydi-da, bog'chasiga kirib ketdi. (M.Tojiboeva)*

Yuqorida ta'kidlanganidek, lingvoaksiologik yondashuvga ko'ra, matn qadriyatlar tizimini til orqali qanday ifodalanishini tahlil qiladi. Ilmiy tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, lingvoaksiologiya matndagi baholovchi leksika, obrazlar va kommunikativ munosabatlar orqali milliy va umuminsoniy qadriyatlarni aniqlaydi.

Matnda quyidagi asosiy qadriyatlar aks etgan:

Ijobiy qadriyatlar: jasorat (Madina qo'rqmaydi); ishonch (shamolga nisbatan); mehribonlik (shamolning gullarni silashi); do'stlik (shamol bilan munosabat); tabiatga ijobiy munosabat.

Salbiy holat: jahl (shamolning dastlabki holati); zerikish.

Lekin matnda salbiy qadriyatlar transformatsiya qilinib, ijobiyga aylanadi.

Lingvoaksiologik tahlilda asosiy e'tibor baholovchi birliklarga ham qaratiladi:

Ijobiy baholovchi leksika: "mehribonligingni bilaman"; "gullarni silab o'tishing"; "salqinlik olib kelib".

Bu birliklar shamol obrazini ijobiy aksiologik maydonga olib kiradi.

Salbiy baholovchi leksika: "jahl bilan g'uvulladi"; "zerikib ketdim".

Bu esa qadriyatlar qarama-qarshiligini yuzaga keltiradi. Qahramonlar orqali qadriyatlar reprezentatsiyasi: Madina — “ideal sub’ekt”; qo‘rqmaslik → jasorat; tabiatni tushunish → ekologik qadriyat; muloqotga kirishish → ijtimoiy qadriyat; Shamol — “dinamik obraz”; boshida → salbiy (jahl, zerikish); oxirida → ijobiy (do‘st, yordamchi).

Bu holat qadriyatlar evolyusiyasini ko‘rsatadi. Shuningdek, mazkur ertakda qadriyatlar transformatsiyasi ham kuzatiladi.

Qahramonlar tabiatiga xos holatlar salbiydan ijobiyga o‘zgarib boradi: jahl-do‘stlik; zerikish-o‘yin, quvonch; qo‘rquv ehtimoli-ishonch.

Bu bolalar ongida ijobiy dunyoqarashni shakllantiradi. Ertakda quyidagi milliy va umuminsoniy qadriyatlar ifodalangan:

Milliy: tabiatga hurmat, mehr-oqibat.

Umuminsoniy: qo‘rquvni yengish, do‘stlik, yaxshilik qilish.

Ertakning matn xususiyatiga ko‘ra kommunikativ-aksiologik aspektini ham ajratib ko‘rsatish mumkin.

Dialog orqali: baholash, ishontirish, munosabat o‘rnatish.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, lingvoaksiologiya fanlararo soha bo‘lib, u til orqali qadriyatlarni o‘rganadi. Madaniy va milliy ongni tadqiq qilishda muhim ahamiyatga ega tadqiqot sohasi hisoblanadi. Ayniqsa, badiiy matnlar (ertaklar) bu yo‘nalishdagi tadqiqotlar uchun muhim material bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Адабиётлар

Гибатова Г.Ф. Аксиология в языке. // Вестник ОГУ 2011. №2 (121) / февраль. – С.127-132; Юнусова Р.Ж. Аксиология фразеологизмов со значением гостеприимство / кунакчылык в русском и татарском языках. Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Казань 2009. – 23 с.

Воркачев С.Г. Lumennaturale: аксиология интеллекта в языке: монография. – Краснодар: Изд. ФГБОУВПО «КубГТУ», 2016. –296с. Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – М.: Гнозис,2004. – 390 с.

Safarov Sh. Pragmalingvistika. –Т.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008.

Қамбаров Ғ.С. Баҳо муносабати ва унинг ўзбек тилида ифодаланиши (шахслараро муносабат асосида). Филол. фан. номз... дисс. – Т., 2008.

Пардаев З. Баҳо категорияси ва унинг фанлараро муносабати. Р.Қўнғуровнинг илмий мероси ва ўзбек тилшунослиги масалалари. – Самарқанд, 2008. – 78 б.

Павлов С. Г. Лингвоаксиологическая модель человека: научно-методический аспект // Вестник Минского университета. – Мн., 2013. – № 2. – С. 56-68.

Komilova G.R. O‘zbek tilidagi maqollarning aksiolingvistik tahlili. Filol. fan. b. f. d.diss. avtoref. -Toshkent, 2022. -B.5.